

KO‘CHAT QALINLIGI VA SOJEAN QO‘LLASHNING INGICHKA TOLALI G‘O‘ZANING SHONALASH DAVRIDA QURUQ MASSA TO‘PLASHIGA TA‘SIRI

Avazova Muhayyo Ashurali qizi

Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
muxoyyoavazova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18986815>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning janubiy mintaqasi Surxondaryo viloyati tuproq-iqlim sharoitida ingichka tolali g‘o‘zani tomchilatib sug‘orish va qo‘shqator usulida parvarishlashda turli ko‘chat qalinliklari va sojean qo‘llashning g‘o‘zaning shonalash davrida o‘simlik quruq massasi to‘planishiga ta‘siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlari: Ingichka tolali Termiz-202 g‘o‘za navi, quruq massa, shonalash davri, ko‘chat qalinligi, sojean.

Аннотация: В данной статье изучается влияние различной густоты стояния и применения препарата соджеана на накопление сухой массы растений в фазе бутонизации тонковолокнистого хлопка при выращивании с использованием капельного орошения и двухстрочного посева в почвенно-климатических условиях Сурхандарьинской области, южного региона Узбекистана.

Ключевые слова: Тонковолокнистый сорт хлопчатника Термиз-202, сухая масса, бутонизация, густота стояния, соджеан.

Annotation: This article studies the effects of different plant densities and application of sojean growth regulator on plant dry mass accumulation during the squaring phase of long staple cotton using drip irrigation and a double row planting scheme in soil-climatic conditions of Surkhondaryo region, southern zone of Uzbekistan.

Keywords: Long staple cotton variety Termez-202, dry mass, squaring phase, plant density, sojean (growth regulator).

Kirish. Hozirgi kunda dunyo miqyosida aholi sonining o‘sishi, to‘qimachilik sanoatiga bo‘lgan talabning ortishi, tabiiy resurslar - ayniqsa suv va yer resurslarining cheklanganligi qishloq xo‘jaligida yangi, samarali va barqaror ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, yuqori sifatli xomashyo manbai hisoblangan ingichka tolali g‘o‘zani resurstejamkor texnologiyalar asosida yetishtirish masalasi ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi «Surxondaryo viloyatida ingichka tolali paxta yetishtirishni ilmiy asosda amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-170 sonli qarorida ingichka tolali paxta yetishtirishni ilmiy asosda tashkil etish va resurstejamkor agrotexnologiyalarni keng qo‘llash bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda olimlarimiz tomonidan yaratilgan davlat reestriga kiritilgan va istiqbolli nav sifatida qabul qilingan ingichka tolali g‘o‘za navlarini parvarishlash agrotexnologiyalarini ishlab chiqish bilan birga keng miqyosda joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni jadallik bilan olib borishda ushbu tadqiqot yuqoridagi qarorlar ijrosini ta‘minlashga xizmat qiladi.

O‘simliklarda quruq massaning yig‘ilishi bir qator omillar ta‘sirida yuzaga keladi. G‘o‘za o‘simligida esa bu jarayon asosan tabiiy iqlim sharoitlari, g‘o‘za turi va navi, shuningdek, qo‘llanilgan agrotexnik tadbirlar bilan chambarchas bog‘liq holda kechadi. G‘o‘za navlarida quruq massalarning to‘planishi o‘simlikning o‘sish va rivojlanish jarayonidagi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, hosildorlik darajasi va tola sifatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Dala tajribalari Surxondaryo viloyatining sug‘oriladigan taqirsimon tuproqlari sharoitida 2024-2025 yillarda o‘tkazildi.

Ingichka tolali g‘o‘zani qo‘shqator usulida yetishtirish bo‘yicha tajriba tizimi 12 ta variantdan iborat bo‘lib, 3 ta takrorlanishda, bitta yarusda joylashtirildi. Har bir variant 8 qatordan, qator oralig‘i qo‘shqator 60x30 sm, bitta delyanka umumiy maydoni 720 m², shundan hisob maydoni 360 m² ni tashkil etdi. Tajribada ingichka tolali g‘o‘zaning Termiz-202 navi chigitlarining R₁ avlodli urug‘liklari ekildi.

Tahlil va natijalar. G‘o‘za navlarining quruq massa to‘plashi shonalashda variantlar bo‘yicha o‘rganildi.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Shonalash davrida sojean 4-5 chin barg davrida 7,5 g/a, shonalash boshlanganda 15 g/ga fonning variantlarida 140 ming tup/ga ko‘chat qalinligida quruq massa to‘planishi yillar bo‘yicha 170 va 200 ming tup/ga ko‘chat qalinligiga nisbatan 1-0,7 va 1,5 g yuqori bo‘lganligi qayd etildi.

Sojean preparati shonalash davrida 15 g/ga qo‘llanilgan fonning variantlarida ko‘chat qalinligi 140 ming tup/ga bo‘lgan 7-variantda quruq massa to‘plash miqdori yillar bo‘yicha 14,3-15,9 g ni tashkil qilgan. Huddi shu fonning 170 va 200 ming tup/ga ko‘chat qalinligida esa quruq massa miqdori 13,6-15,3 va 13,1-14,5 g tashkil qilganligi qayd etildi.

G‘o‘za tupining 16-18 hosil bo‘g‘inida qo‘lda chilpilgan fonning variantlarida ko‘chat qalinligi 140 ming tup/ga variantda quruq massa to‘plash miqdori 14,5-16,1 g ni, 170 va 200 ming tup/ga ko‘chat qalinligida esa quruq massa miqdori 13,9-15,7 va 13,2-14,7 g ni tashkil qilgan. Quruq massa to‘planishining eng yuqori holati umuman chipilmagan ko‘chat qalinligi 140 ming tup/ga variantda kuzatildi. Bunda quruq massa to‘plash miqdori 14,7-16,4 g ni tashkil qilgan. 170 va 200 ming tup/ga ko‘chat qalinligida esa quruq massa miqdori 14-15,7 va 13,3-14,9 g ni tashkil qilgan (1-2-jadvallar).

1-jadval

Ko‘chat qalinligi va chilpish usullarida g‘o‘zaning quruq massa to‘plashi, 2024 y (shonalash davri)

Var. t/r	Chilpish usullari	Ko‘chat qalinligi	SHONALASH FAZASI, g				Bir o‘simlik umumiy massasi
			Barg	Poya	Ildiz	Shona	
1	Chilpilmagan	140	6,6	5,9	1,5	0,7	14,7
2		170	6,3	5,6	1,4	0,7	14,0
3		200	6,0	5,3	1,4	0,6	13,3
4	Qo‘lda (16-18 hosil bo‘g‘inda)	140	6,5	5,8	1,5	0,7	14,5
5		170	6,3	5,5	1,5	0,6	13,9
6		200	6,0	5,2	1,4	0,6	13,2
7	Sojean Shonalash davrida 15 g/ga	140	6,4	5,6	1,5	0,8	14,3
8		170	6,1	5,4	1,4	0,7	13,6
9	Gullash davrida 45 g/ga Hosil to‘plash davrida 90 g/ga	200	5,9	5,1	1,4	0,7	13,1
10	Sojean 4-5 chin barg davrida 7,5 g/ga Shonalash boshlanganda 15 g/ga	140	6,2	5,5	1,5	0,9	14,1
11		170	5,7	5,2	1,4	0,8	13,1
12	Gullash boshlanganda 22,5 g/ga Gullash-hosil to‘plash davrida 45 g/ga Hosil to‘plash davrida 60 g/ga Chilpishdan oldin 120 g/ga	200	5,5	5	1,4	0,7	12,6

2-jadval

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral
Ko‘chat qalinligi va chilpish usullarida g‘o‘zaning quruq massa to‘plashi, 2025 y
(shonalash davri)

Var. t/r	Chilpish usullari	Ko‘chat qalinligi	SHONALASH FAZASI, g				
			Barg	Poya	Ildiz	Shona	Bir o‘simlik umumiy massasi
1	Chilpilmagan	140	7,6	6,4	1,6	0,8	16,4
2		170	7,3	6,1	1,6	0,7	15,7
3		200	7,0	5,8	1,5	0,6	14,9
4	Qo‘lda (16-18 hosil bo‘g‘inda)	140	7,5	6,2	1,6	0,8	16,1
5		170	7,3	6,0	1,6	0,8	15,7
6		200	7,0	5,6	1,5	0,6	14,7
7	Sojean Shonalash davrida 15 g/ga	140	7,4	6,1	1,5	0,9	15,9
8		170	7,1	5,9	1,5	0,8	15,3
9	Gullash davrida 45 g/ga Hosil to‘plash davrida 90 g/ga	200	6,9	5,5	1,4	0,7	14,5
10	Sojean 4-5 chin barg davrida 7,5 g/ga	140	7,3	6,0	1,5	1,1	15,9
11		170	7,0	5,8	1,5	0,9	15,2
12	Shonalash boshlanganda 15 g/ga Gullash boshlanganda 22,5 g/ga Gullash-hosil to‘plash davrida 45 g/ga Hosil to‘plash davrida 60 g/ga Chilpishdan oldin 120 g/ga	200	6,7	5,5	1,4	0,8	14,4

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, g‘o‘zada shonalash davrida quruq moddaning eng ko‘p to‘planishi umuman chilpilmagan 140 ming tup/ga ko‘chat qalinligida yillar bo‘yicha 14,7-16,4 g ekanligi kuzatildi. Nisbata eng kam quruq massa to‘planishi holati kimyoviy usulda chilpish o‘tkazilgan ya‘ni sojean 4-5 chin barg davrida 7,5 g/a, shonalash boshlanganda 15 g/ga fonning variantlarida 200 ming tup/ga ko‘chat qalinligida yillar bo‘yicha quruq massasi umumiy 12,6-14,4 g ni tashkil etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. Toshkent, 2007.-145 b.
2. Gapparov S. Qo‘shqatorlab ekilgan g‘o‘zani qora polietilen plyonka ostidan tomchilatib sug‘orish me‘yorini hisoblash uslubi. //O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi jurnalining Agroilm ilmiy ilovasi. -Toshkent 2021. №2 (72) -B.80-82.